

Matluba TO'XTAYEVA

*O'zbekiston milliy universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti mustaqil tadqiqotchisi*

YOSHLAR TARBIYASIDA IMOM BUXORIY HADISLARINING O'RNI

РОЛЬ ХАДИСОВ ИМАМА БУХАРИ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

THE ROLE OF IMAM BUKHARI'S HERITAGE IN THE EDUCATION

Annotasiya: Maqolada, Islom dinining musaffoligini saqlash, uning asl mohiyatini ochib berish, sof e'tiqodni targ'ib etish yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma Imom Buxoriy hayoti va ma'naviy merosini bilan bo'g'liqligi, Imom Buxoriyning hadis ilmiga munosabati, hadislarni yod olibgina qolmay, balki yoshligidan boshlab sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayrisahihlarga ajratish, ularning illatini aniqlash, hadis roviylarini o'rganib tahqiq qilish, ular rivoyatining adolatligini, hadis ilmining turli masalalarini tadqiq etish, ularni jamlash va Qur'on oyatlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish kabi masalalar bilan qiziqqanligi, Imom Buxoriy hadislarining jahonshumul ahamiyati, hamda yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida olib borilishida alloma ma'naviy merosining katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi o'rganilgan.

Tayanch iboralar: ma'naviy meros, islom, din, hadis, odob-axloq.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы сохранения чистоты религии ислама, раскрытия ее истинной сущности, пропаганды чистой веры, а также обсуждаются вопросы, связанные с жизнью и духовным наследием великого ученого, нашего соотечественника Имама Бухари. С юных лет посвятив себя науке хадисов, Имам Бухари обращал внимание не только заучиванию хадисов, но и на разделение их на сахих-хадисы (достоверные) и ложные (недостоверные), выявление их пороков. Интересовался такими вопросами, как их обобщение и изучение в тесной связи с аятами Корана. Хадисы имама Бухари, его духовное наследие имеет мировое значение в воспитании подрастающего поколения на основе национальных и религиозных ценностей.

Ключевые слова: духовное наследие, ислам, религия, хадисы, этикет.

Annotation: The article examines the issues of preserving the purity of the religion of Islam, disclosing its true essence, promoting pure faith, and also discusses issues related to the life and spiritual heritage of the great scientist, our compatriot Imam Bukhari. From a young age, devoting himself to the science of hadiths, Imam Bukhari paid attention not only to memorizing hadiths, but also to dividing them into sahih-hadiths (reliable) and false (unreliable), revealing their vices. He was interested in such issues as their generalization and study in close connection with the verses of the Koran. Hadiths of Imam Bukhari, his spiritual heritage is of world importance in educating the younger generation on the basis of national and religious values.

Key words: spiritual heritage, Islam, religion, hadith, etiquette.

KIRISH

Buyuk millat tarixi, ajdodlar hayoti va ilmiy ma'naviy merosini keng tadqiq etish bugungi va kelajak avlodlar ma'naviy komilligini yuksaltirishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Har qanday davr va har qanday jamiyatda ham olimu ulamolar, mutafakkiru donishmandlarning o'rni beqiyos bo'lgan. El - yurt o'zining shunday aziz va buyuk farzandlari bilan xaqli ravishda farqlangan, ko'ngli tog'day ko'tarilib, g'ururu iftixorga to'lgan. Bu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Jannat makon yurtimiz – O'zbekiston zaminidan azal -azaldan o'zlarining ilmiy – ma'naviy, ma'naviy – falsafiy meroslari bilan jumla jahonga tanilgan ko'plab buyuk allomalar va mutafakkirlar yetishib chiqib, samarali faoliyat ko'rsatganlar. Ular aql – zakovati, tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo'lgan bebaho asarlari hamda buyuk kashfiyotlari ming yillar osha nafaqat bizning diyorimiz, balki jahon ahlining qudratli ma'naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi. Bu umumbashariy meros dunyo tamadduni rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'lganligi hozirgi vaqtda ilm ahllariga ham, keng jamoatchilikka ham yaxshi ma'lum.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "Imom al Buxoriy va Burxoniddin Marg'iloniy, Iso va Xakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy va Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband va Hoji Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi ko'plab daholar nomi jahon sivilizatsiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan." [1.28]

Darhaqiqat, yurtimizdan shunday buyuk allomalar yetishib chiqqanki, ularning hayoti va ilm - ma'rifati dunyo ahli tomonidan doim e'zozlanib, o'rganilib kelinmoqda. Bu kabi allomalar bizning diyorimizda juda ko'p bo'lib, ularning hayoti va ilmiy merosi keng tadqiq etilmoqda. Buyuk allomalarimiz o'z davrlari uchungina emas, balki kelgusi avlodlar uchun, kelajak zamon va davrlar uchun ma'naviy kuch-quvvat manbasi bo'lgan bebaho ma'naviy meros qoldirganlar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev fikrlarini davom ettirarkan, "Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyondalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihul Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan." [1]

Muhaddislar sultoni bo'lgan Imom Buxoriy hayoti va ma'naviy merosini keng tadqiq etish yuzasidan nafaqat yurtimiz balki butun musulmon olamida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Imom Buxoriyning hayoti va faoliyati, u meros qoldirgan shoh asarlar davrlar osha axloqiy va huquqiy hikmatlari ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganilmoqda.

Islom dinining musaffoligini saqlash, uning asl mohiyatini ochib berish, sof e'tiqodni targ'ib etish yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar hayoti va ilmiy-ma'naviy merosini mukammal o'rganish asosida bo'lib, yurtimizda mavjud kutubxona va qo'lyozma fondlaridan saqlanib kelinayotgan 100 mingdan ziyod arab, fors va eski turkiy tillardagi noyob asarlarni o'rganish, keng tatbiq etish bilan amalga oshirilmoqda.

Islom dinining asl mazmun – mohiyatini teran anglashda ijtimoiy axloqiy masalalarga targ'ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida olib borilishida Imom Buxoriy merosining ahamiyati kattadir. Islom dinining tom ma'noda komillikka chorlaydigan, insoniy fazilatlarga targ'ib qiladigan, botil mafkuralardan saqlaydigan din ekanligi to'g'risida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday fikrni keltirib o'tdilar: "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Bu muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamiligining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz... Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab – avaylashga da'vat etadi." [1]

Hadis (arab. حديث) - musulmon jamoasining hayotining turli xil diniy va huquqiy jihatlariga ta'sir qiluvchi Payg'ambar Muhammad (s.a.v) ning so'zlari va harakatlariga oid afsonalar. [2] Hadis - Payg'ambar (s.a.v) ning barcha musulmonlarga obro'li va shariatning asoslaridan birini tashkil etadigan sunnatni bayon qiladigan Muhammad (s.a.v) ning (Kaul), tasdiq (takrir) Payg'ambarlarning sheriklari orqali hadislar naql qilingan.

Arab tilidan tarjima qilingan «Hadis» so'zi, «yangi» yoki «suhbat», «an'analar», «hikoya» [3] degan ma'nodan olingan. Har bir aytilgan gap - so'z yangi hodisa bo'lgani uchun arablarda so'zni «hadis» deyishgan. Hadis deganda Nabiy alahissalomning aytgan gap-so'zlari ko'zda tutiladi va tushuniladi. Ulamolar istilohida esa «hadis» quyidagicha ta'riflanadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan osor bo'lib qolgan gap, ish, taqrir, xalqiy sifatlar, xulqiy sifatlar hamda tarjimai holga tegishli ma'lumotlar «hadis» deyiladi».[4]

Demak, hadislar payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati, u zoti sharifning diniy, axloqiy, ma'naviy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan eng mo'tabar va bebaho hikmatlar majmuasidirki, ularda shariat axkomlari, Qur'oni Karimda ifoda etilgan barcha ilm-amaliyotlar, g'oyalar har tomonlama chuqur talqin etilib, batafsil izohlanadi.

Ustoz akademik M.Xayrullayev ta'kidlab o'tganlaridek, "Islom dinining manbalari "Qur'oni karim" va Payg'ambarimizning muborak

hadislarida "... ilohiyot, diniy masalalar bilan birga o'z davrining axloqiy va siyosiy an'analari, insonparvarligi, insonlarni qovushtiruvchi, ular o'rtasida ziddiyat, nizolarning oldini oluvchi, adolat o'rnatishga qaratilgan axloqiy fikrlar ham keng o'rin olgan".[5]

Imom al – Buxoriy hadislarini yodlashni 10 yoshidan yoki undan ham ilgariroq boshlaydi. Imom al – Buxoriy hadis ilmiga bu darajada tez yuz tutmoqlikka undaydigan ko'pdan – ko'p sabablar bo'lgan. Ya'ni birinchidan, olim bo'lmish otasini eslamog' tuyg'usi uni to'ldirib, uning zohiriy aqlini uyg'otgani bo'lsa, ikkinchidan o'z Vatanida hadis imomlarini, ya'ni islom dunyosining turli joylaridan kelgan peshqadam olimlarning rivoyat qilgan hadislarini, olimni hadis olamiga chorlagan. Imom al – Buxoriy dastlab hadis ilmidan Buxoroda, o'z davrining taniqli muhaddisi ad-Doxiliydan saboq oladi. Hadislarni o'rganish bo'yicha ushbu olim tashkil etgan xalqaning shuhrati keng tarqalgan edi. Shu tariqa Imom al – Buxoriy 16 – yoshigacha o'z Vatani tarixini va Movarounnahrda mashhur ulamolardan hadis ilmini chuqur o'rgandi. Shuning barobarida u hadis ilmi bo'yicha o'z ustozlari bilan ilmiy baxslar olib bordi. Ayni vaqtda mashhur bo'lgan Abdulloh ibn al – Muborak va al-Vaki ibn Jarroh kabi olimlarning to'plamlarini yod olgan. [6] Uning ustozlari va zamondoshlari bu yosh yigitning ilmiga bo'lgan chanqoqligini ko'rib taajjubda qolishardi. U hadislarini yod olibgina qolmay, balki yoshligidan boshlab sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayrisahihlarga ajratish, ularning illatini aniqlash, hadis roviylarini o'rganib tahqiq qilish, ular rivoyatining adolatligini, hadis ilmining turli masalalarini tadqiq etish, ularni jamlash va Qur'on oyatlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish kabi masalalar bilan qiziqdi. Imom al-Buxoriy o'zining ilmga bo'lgan muhabbati tufayli Movarounnahrda ko'zga tanildi va zehni o'tkirligi tufayli mashhur olimlarning e'tiborini jalb etdi. Bu hol shu darajaga yetdiki, hatto taniqli olimlar ham o'z darslarida Imom al-Buxoriyning hozir bo'lishidan tashvishlanib uning huzurida biror xato yoki kamchilikka yo'l qo'yishdan xavotirlanadigan bo'lib qoldilar.

Imom al-Buxoriy ilmiy uslubi boshqalardan farqlanardi, u har bir hadisni rivoyat qilgan sahoba

va tobeinlarning tug'ilgan va vafot etgan yillarini va ularning yashagan davr va makonlarini aniq bilar edi. Imom al – Buxoriy 100 mingdan sahih hadis va 200 ming sahih bo'lmagan hadislarini yoddan bilgan. Imom Buxoriyning eng muhim asari, shubhasiz, "Al-jome' as - sahih" (Ishonchli to'plam)dir. Bu asar "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan ham mashhurdir. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Imom al - Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.[7] Darhaqiqat, Imom Buxoriyning «Al-Jome' as-sahih» deb nomlangan hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan to'plamlar orasida eng ishonarli va mukammalidir.

Imom Buxoriyning ushbu kitobi ma'naviy qadriyatlarimizni tiklashda, kishilarda axloq - odob, halollik, rostgo'ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarini qaror toptirishda katta o'ringa egadir.

Urganish davomida shunga guvoh buldikki, bu ta'limotlar davr tanlamasligi namoyon buldi. Imom Buxoriyning "Sahih Buxoriy" va ularning shogirdlari hadislarini jamlangan asarlarida axloqiy masalalar bilan bir qatorda ijtimoiy masalalar va ularning yechimlari bayon qilingan muborak hadislar ham, ya'ni g'iybat, chaqimchilik, gap tashish, hasad, arazlashish kabi salbiy illatlar va savdo-sotiqda hallollik, zakot berish, yetimlar haqqiga xiyonat qilmaslik, qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, yoshi ulug'larni hurmat qilish kabi o'zaro muammolar yechimi o'z o'rnini topgan.

Odob-axloq masalasi millatimiz madaniy hayotining ajralmas qismi, ezgu qadriyatlarimizdandir. Har bir fuqaro ma'naviyatining shakllanishi va kamol topib borishida odob-axloqni ta'sir ko'rsatishi muqarrar. Odob-axloq o'ziga xos qonunlar, udum va ananalarga amal qiladi. Har bir fuqaro odob-axloqni ahamiyatini yaxshi anglab yetishi zarur. Bu mas'uliyat esa aql idrok amriga rioya qilish, halollikni hayot qonuni deb bilish, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda odob-axloq munosabatini ham e'tiborda tutish, yuksak odob va madaniyat sohibi bo'lib yurtdoshlar diliga

xushnudlik, yaxshi kayfiyat bag'ishlash, hamisha adolatli va haqqo'niy, shirin so'z va muloyim, kamtar va saxovatli bo'lish, mahalla ahliga hech qachon ozor yetkazmaslik, g'iybat, hasad, tuhmat, chaqimchilik, manmanlik kabi illatlardan yiroq bo'lish, ichkilikbozlik va giyohvandlikdan hazar qilish singari xislatlarga ega bo'lishni taqozo etadi.

XULOSA

Xulosa qilganda, Imom al-Buxoriy hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go'zallik tuyg'ularini mujassamlashtiradi. Ilm-fanda "Hadis ilmining amiri" deb bir ovozdan tan olingan Imom Ismoil al Buxoriy hadislarini mehr-oqibat, sahiylik, ota-ona va kattalarga omad, yetim-yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o'zaro do'st, tinch-totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlarini barkamol avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy hadislarini yoshlarni mehnatsevarlik va erksevarlik, har qanday og'ir vaziyatda ham mustahkam iroda, vazminlik bilan ish tutish va omilkorlik, kelajakka, insonga doir udum va an'analar ruhida shuningdek shaxs ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga katta imkoniyat beradi.

Imom al-Buxoriy hadislarini o'z Vatanini sevuvchi uning ravnaqi va istiqboli uchun fidoiy yoshlarimiz, barkamol avlod uchun albatta dastrulamal bo'lib qolishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017 yil, I tom. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr kuni AQShda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so'zlagan nutqidan
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Ислам:ЭС,1991>
3. Baranov X. K. Arabsko-russkiy slovar: ok. 42000 slov. -3-ye izd.- M., 2001
4. <http://hadis.islom.uz/maqolalar/item/85-hadis-hadisiqudsiy-quron.html>

5. Hayrullaev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati.- Toshkent, FAN, 1994, 17-18-betlar.
6. Eshonjonov B.I. IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqei va uning "Al-Jomiy As-Sahih" asaridagi fikhiy masalalar " dissertatsiya avtoreferati. 2000 yil
7. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Jome' as-sahih (ishonchli to'plam), 4 jildlik – Toshkent, Qomuslar bosh taxririya, 1991-1999.31b.